

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

IJTIMOY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MAFKURAVIY HAMJIHATLIK VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Shavkatov Musojon Nosirovich

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: musojonshavkatov@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5326-626X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ko'pmillatli jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda mafkuraviy hamjihatlik va bag'rikenglik madaniyatining ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining falsafiy mohiyati, mafkuraviy tahdidlar tasnifi, ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi dialektik aloqadorlik, shuningdek, etnik va konfessional munosabatlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati o'rganiladi. Maqolada globallashuv sharoitida ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillar — diniy ekstremizm, axborot xurujlari, kosmopolitizm va etnik adovatni qo'zg'atish tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, mafkuraviy hamjihatlikning ijtimoiy barqarorlik bilan dialektik bog'liqligi asoslangan hamda O'zbekiston sharoitida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashning strategik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida "ijtimoiy xavfsizlik" va "mafkuraviy hamjihatlik" tushunchalariga mualliflik ta'riflari berilgan. Maqola falsafa, siyosatshunoslik va jamiyatshunoslik yo'nalishidagi olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xavfsizlik, mafkuraviy hamjihatlik, bag'rikenglik madaniyati, ideologik konsensus, ijtimoiy barqarorlik, ko'pmillatli jamiyat, mafkuraviy tahdidlar, etnik munosabatlari.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРЫ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ЕДИНСТВА И ТОЛЕРАНТНОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Шавкатов Мусожон Носирович

Ферганский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются социально-философские основы идеологической солидарности и культуры толерантности в обеспечении социальной безопасности многонационального общества. Исследуются философская сущность понятия социальной безопасности, классификация идеологических угроз, диалектическая взаимосвязь между идеологическим консенсусом и социальной стабильностью, а также социальное значение развития культуры толерантности в этнических и конфессиональных отношениях. Системно проанализированы основные факторы, представляющие угрозу социальной безопасности в условиях глобализации, — религиозный экстремизм, информационные атаки, космополитизм и разжигание межэтнической вражды. Кроме того, обоснована диалектическая взаимосвязь идеологической солидарности и социальной стабильности, а также раскрыто стратегическое значение обеспечения межнационального согласия и религиозной толерантности в условиях Узбекистана. На основе результатов исследования предложены авторские определения понятий «социальная безопасность» и «идеологическая солидарность». Статья может служить научным источником для учёных, исследователей и практиков в области философии, политологии и обществознания.

Ключевые слова: социальная безопасность, идеологическая солидарность, культура толерантности, идеологический консенсус, социальная стабильность, многонациональное общество, идеологические угрозы, этнические отношения.

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF IDEOLOGICAL HARMONY AND A CULTURE OF TOLERANCE IN ENSURING SOCIAL SECURITY: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Shavkatov Musojon Nosirovich

Fergana State University, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the socio-philosophical foundations of ideological solidarity and a culture of tolerance in ensuring social security in a multiethnic society. The study

examines the philosophical essence of social security, the classification of ideological threats, the dialectical relationship between ideological consensus and social stability, and the social significance of developing a culture of tolerance in ethnic and interfaith relations. The article systematically analyzes major factors that may threaten social security in the context of globalization, including religious extremism, information attacks, cosmopolitanism, and the incitement of ethnic hostility. It also examines the dialectical relationship between ideological solidarity and social stability and highlights the strategic importance of ensuring interethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan. Based on the research findings, the author proposes definitions of the concepts of "social security" and "ideological solidarity." The article may serve as a scholarly resource for researchers and practitioners in philosophy, political science, and social studies.

Keywords: social security, ideological solidarity, culture of tolerance, ideological consensus, social stability, multiethnic society, ideological threats, ethnic relations.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va geosiyosiy o'zgarishlar kuchayib borayotgan sharoitda ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarning mohiyati va ko'rinishi ham murakkablashib bormoqda [1, 3].

Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi jamiyat va insonning ijtimoiy tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi. U jamiyatda barqaror ijtimoiy munosabatlarni saqlash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy totuvlik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashni o'z ichiga oladi [3, 6].

O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholini ijtimoiy himoya qilish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1, 2].

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda mafkuraviy hamjihatlik va bag'rikenglik madaniyatining ijtimoiy-falsafiy asoslarini o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekiston sharoitida polietnik jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning mafkuraviy va madaniy mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan: ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining falsafiy mazmunini tahlil qilish; mafkuraviy hamjihatlikning ijtimoiy barqarorlik bilan dialektik aloqadorligini asoslash; etnik va konfessional munosabatlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy xavfsizlik muammosi zamonaviy ijtimoiy falsafa va siyosatshunoslikda keng tadqiq qilingan. A. Giddens [4] modernlik sharoitida ijtimoiy xavfsizlikning yangi ko'rinishlarini tahlil qilib, unda institutlarga ishonchning o'rnini asoslaydi. P. Bourdieu [5] ijtimoiy maydonda mafkuraviy kuchlarning taqsimlanishi va ularning jamiyat barqarorligiga ta'sirini ko'rsatadi.

A. Sen [6] rivojlanishni erkinlik sifatida talqin qilib, ijtimoiy xavfsizlikni inson imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq holda ko'radi. Z. Bauman [7] likvid modernlik nazariyasida zamonaviy jamiyatdagi mafkuraviy beqarorlik va identifikatsiya inqirozini tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy xavfsizlikning ko'pmillatli jamiyatdagi falsafiy asoslarini tushunishga yordam beradi [6, 7].

Bag'rikenglik madaniyati muammosini A. D. Smit [9] etnik identifikatsiya va milliy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan o'rganadi. R. Brubaker [10] etnik chegaralar va guruhlararo munosabatlarning dinamikasini tahlil qilib, bag'rikenglikning siyosiy-ijtimoiy asoslarini ko'rsatadi. A. Wimmer [11] etnik chegaralar shakllanishi va ularning ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini tadqiq etadi.

O'zbek tadqiqotchilaridan N. A. Toshmatov [12] ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning falsafiy asoslarini o'rganib, milliy qadriyatlar va davlat siyosatining o'rnini asoslab beradi. A. Xoliqov [13] bag'rikenglik madaniyatining falsafiy asoslarini tahlil qilib, uning ijtimoiy barqarorlikdagi rolini ko'rsatadi. YUNESKO [14] va YEXHT [15] hujjatlari madaniy xilma-xillik va bag'rikenglik tamoyillarini xalqaro miqyosda belgilaydi.

R. Forst [17] tolerantlik to'g'risidagi nazariyasida pluralizm sharoitida bag'rikenglikning falsafiy asoslarini ishlab chiqadi. M. Verkuyten [16] etnik identifikatsiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilib, ko'pmillatli jamiyatda bag'rikenglik muhitini shakllantirishning muhimligini asoslaydi. Sh. Jurayev [8] mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasini O'zbekiston misolida ko'rib chiqadi.

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlarda ijtimoiy xavfsizlik va bag'rikenglik madaniyatining turli jihatlarini o'rganilgan bo'lsa-da, ko'pmillatli o'zbek jamiyati kontekstida mafkuraviy hamjihatlik va bag'rikenglikning dialektik birligi yetarlicha tahlil etilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan: tizimli tahlil, dialektik yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil, konseptual modellashtirish va dissertatsiya materiallarini kompleks o'rganish. Tadqiqot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, YEXHT) hujjatlari, zamonaviy falsafa va ijtimoiy fanlar bo'yicha adabiyotlar, shuningdek, dissertatsiyaning II bobi materiallaridan foydalanilgan [1, 2, 14, 15].

Tizimli tahlil metodi orqali ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning murakkab tarkibiy tuzilishi o'rganildi. Dialektik yondashuv ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda qo'llanildi. Qiyosiy-

tarixiy tahlil O'zbekiston va boshqa ko'pmillatli davlatlar tajribasini solishtirish imkonini berdi. Dissertatsiya materiallarini empirik tahlil qilish asosida mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: (1) ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi mafkuraviy tahdidlarni tizimlashtirish; (2) ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni asoslash; (3) bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatini aniqlash.

1-jadval. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi mafkuraviy tahdidlar va ularning tasnifi

No	Mafkuraviy tahdidlar	Tasnifi	Qisqacha mazmuni	Ijtimoiy xavfsizlikka ta'siri
1.	Diniy ekstremizm va terrorizm	Radikal mafkuraviy tahdid	Dinni siyosiy maqsadlarda talqin qilish va zo'ravonlik g'oyalari targ'ib etish	Jamiyatda qo'rquv, beqarorlik va millatlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi
2.	Ommaviy madaniyat ekspansiyasi	Madaniy-ma'naviy tahdid	Milliy qadriyatlarga zid bo'lgan begona turmush tarzi va madaniy qarashlarning tarqalishi	Milliy identiklik va ma'naviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib keladi
3.	Axborot xurujlari va feyk axborotlar	Axborot-mafkuraviy tahdid	Internet va OAV orqali yolg'on yoki manipulyativ axborotlarni tarqatish	Ijtimoiy ishonchsizlik va mafkuraviy beqarorlikni keltirib chiqaradi
4.	Kosmopolitizm va milliy qadriyatlarni inkor etish	G'oyaviy-ma'naviy tahdid	Milliy manfaat va an'analarni ikkinchi darajaga tushirish g'oyalari	Vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash hissini susaytiradi
5.	Etnik va diniy adovatni qo'zg'atish	Ijtimoiy-mafkuraviy tahdid	Millat va konfessiyalar o'rtasida nafrat va qarama-qarshilik targ'ib qilinishi	Millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikka xavf tug'diradi
6.	Yoshlar ongiga yot g'oyalarni singdirish	Psixologik-mafkuraviy tahdid	Ijtimoiy tarmoqlar va turli platformalar orqali buzg'unchi g'oyalarni tarqatish	Yoshlarda mafkuraviy bo'shliq va ijtimoiy befarqlikni kuchaytiradi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikka tahdid solayotgan mafkuraviy omillar 6 ta asosiy turga bo'linadi (1-jadval). Ularning eng xavfli — diniy ekstremizm va terrorizm bo'lib, u jamiyatda qo'rquv, beqarorlik va millatlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi. Axborot xurujlari va kosmopolitizm esa zamonaviy jamiyatda milliy identiklikka jiddiy xavf tug'diradi [3, 9].

Mualliflik ta'rifimizga ko'ra, "ijtimoiy xavfsizlik" — bu inson, jamiyat va davlatning ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va mafkuraviy tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik, ma'naviy hamjihatlik va ijtimoiy totuvlik tamoyillariga asoslanadi. Bu ta'rif ijtimoiy xavfsizlikning ko'p qirrali mohiyatini aks ettiradi [6, 12].

2-jadval. Ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi dialektik aloqadorlik tahlili

No	Ideologik konsensus	Ijtimoiy barqarorlik	Dialektik aloqadorligi
1.	Umumiy g'oya va qadriyatlar asosida jamiyat a'zolarining g'oyaviy birlashuvi	Jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va ijtimoiy muvozanatning qaror topishi	Umumiy g'oyaviy birlik ijtimoiy barqarorlikning ma'naviy asosini yaratadi
2.	Milliy manfaatlar va strategik maqsadlar atrofida kelishuv	Ijtimoiy munosabatlarning izchil va barqaror rivojlanishi	Umumiy maqsadlar ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi va barqarorlikni kuchaytiradi
3.	Millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglikni shakllantirish	Millatlararo totuvlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash	Bag'rikenglik muhiti ijtimoiy ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi
4.	Yoshlarda mafkuraviy immunitet va vatanparvarlikni rivojlantirish	Yoshlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik faolligini oshirish	Sog'lom mafkuraviy muhit ijtimoiy xavflar va buzg'unchi g'oyalarning oldini oladi

5.	Qonun ustuvorligi va umumfuqarolik qadriyatlarini qaror toptirish	Huquqiy tartib va ijtimoiy adolatni ta'minlash	Huquqiy va ma'naviy birlik ijtimoiy barqarorlikning institutsional asosini mustahkamlaydi
6.	Jamiyatda ma'naviy hamjihatlik va ijtimoiy ishonch muhitini yaratish	Ijtimoiy tizimning barqaror faoliyati va taraqqiyotini ta'minlash	Ijtimoiy barqarorlik mafkuraviy konsensusni mustahkamlasa, mafkuraviy konsensus barqarorlikni ta'minlaydi

2-jadval shuni ko'rsatadiki, ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik oltita o'zaro bog'liq jihat orqali dialektik aloqa qiladi. Dialektik nuqtayi nazardan qaraganda, ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi munosabat sabab va oqibat xususiyatiga ega: mafkuraviy hamjihatlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlasa, ijtimoiy barqarorlik o'z navbatida mafkuraviy konsensusni mustahkamlaydi [4, 5].

Mualliflik ta'rifimizga ko'ra, "mafkuraviy hamjihatlik" — bu jamiyat a'zolarining turli qarash va manfaatlar xilma-xilligini saqlagan holda, umumiy milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar va taraqqiyot maqsadlari asosida erishilgan g'oyaviy birlik bo'lib, u ijtimoiy totuvlik, huquqiy tenglik va fuqarolik mas'uliyati tamoyillarini o'z ichiga oladi [3, 7].

3-jadval. Bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati (O'zbekiston misolida)

N ^o	Bag'rikenglikning yo'nalishlari	Ijtimoiy ahamiyati	O'zbekiston tajribasi
1.	Diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo munosabatlar	Jamiyatda tinchlik va dinlararo totuvlikni ta'minlaydi	O'zbekistonda 16 dan ortiq konfessiya tinch-totuv yashaydi
2.	Etnik bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar	Ko'pmill atli jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi	130 dan ortiq millat va elat vakillari birgalikda istiqomat qiladi
3.	Madaniy bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglash	Milliy identiklikni saqlab, madaniy xilma-xillikni qo'llaydi	Milliy madaniyat va an'analarni asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi
4.	Fuqarolik bag'rikenglik va demokratik madaniyat	Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi	Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish

3-jadval shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik madaniyati to'rtta asosiy yo'nalishda ijtimoiy ahamiyatga ega. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 dan ortiq konfessiya vakillari tinch-totuv yashashi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning amaliy namunasi hisoblanadi. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning institutsional zamini bo'lib xizmat qiladi [1, 2, 14, 15].

Etnik va konfessional munosabatlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan belgilanadi. Chunki turli millat va diniy konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikeng munosabat ziddiyatlarning oldini oladi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi [10, 11, 16, 17].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda mafkuraviy hamjihatlik va bag'rikenglik madaniyati bir-birini to'ldiruvchi strategik omillar hisoblanadi. A. Giddens [4] nazariyasi bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda ijtimoiy barqarorlik faqat institutsional mexanizmlar orqali emas, balki jamiyatda umumiy g'oya va qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali ham ta'minlanadi.

P. Bourdieu [5] va Z. Bauman [7] tahlillari bilan solishtirganda, O'zbekiston tajribasida mafkuraviy hamjihatlikni ta'minlashning o'ziga xos usullari mavjudligi aniqlandi. Jumladan, milliy g'oya asosida jamiyatni tarbiyalash, tarixiy xotira va madaniy vorislikni asrash ijtimoiy barqarorlikning mahalliy modelini belgilaydi [3, 9].

Bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish masalasida R. Forst [17] va M. Verkuyten [16] nazariyalari O'zbekiston tajribasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik faqat mafkuraviy emas, balki tarixiy-madaniy an'ana sifatida ham shakllangan. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida turli millat va din vakillarining birgalikdagi yashashi va ijodiy hamkorligi bag'rikenglik madaniyatining chuqur tarixiy ildizlarini ko'rsatadi [9, 10, 13].

Tadqiqotimiz natijalari A. D. Smit [9] va R. Brubaker [10] tahlillari bilan mos keladi: etnik va konfessional munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashda milliy o'zlikni anglash va bag'rikenglik madaniyatini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarblashmoqda [8, 12].

Ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi dialektik aloqadorlik — bu jamiyatda umumiy g'oya va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan mafkuraviy birlikning ijtimoiy totuvlik, huquqiy tartib va madaniy rivojlanishni ta'minlovchi barqarorlik tizimiga aylanishidir [4, 5, 7].

XULOSA

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda mafkuraviy hamjihatlik jamiyat a'zolarining umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashuvini ta'minlovchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi. U ijtimoiy parokandalik va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma'naviy himoya funksiyasini bajaradi. Mafkuraviy hamjihatlikning falsafiy asoslari insonparvarlik,

bag'rikenglik, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyati tamoyillariga tayanadi. Mazkur tamoyillar jamiyatda ijtimoiy ishonch va barqaror munosabatlar mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ideologik konsensus va ijtimoiy barqarorlik o'rtasida uzviy dialektik bog'liqlik mavjud bo'lib, biridagi muvozanat ikkinchisining mustahkam rivojlanishiga xizmat qiladi. Jamiyatda umumiy manfaatlar uyg'unligi, huquqiy adolat va madaniy integratsiya ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlardir. Etnik va konfessional munosabatlarda bag'rikenglik madaniyatining shakllanishi millatlararo totuvlik va diniy murosaning muhim ijtimoiy asosi hisoblanadi. Tolerantlik muhiti jamiyatda ziddiyatlarni yumshatish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va milliy birdamlikni saqlash imkonini beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va fuqarolik hamjihatligini ta'minlash ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kelajakda bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 560 b. – URL: <https://uznashriyot.uz/kitoblar/hozirgi-zamon-va-yangi-ozbekiston/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. – URL: <https://www.lex.uz/docs/5841063>
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: yangi tahrir*. – 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan. – URL: <https://www.constitution.uz/oz>
4. Giddens A. *The Third Way: The Renewal of Social Democracy*. – Cambridge: Polity Press, 1998. – 166 p. – URL: <https://www.finna.fi/Record/ekk.992855894006250>
5. Bourdieu P. *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste*. – London: Routledge & Kegan Paul, 1984. – 613 p. – URL: <https://obnb.uk/p7395998-distinction-a-social-critique-of-the-judgement-of-taste>
6. Sen A. *Development as Freedom*. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p. – URL: <https://books.google.com/books?id=NQs75PEa618C>
7. Bauman Z. *Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 240 p. – URL: <https://www.wiley-vch.de/de/fachgebiete/geistes-und-sozialwissenschaften/soziologie-12so/gesellschaftstheorie-12so1/liquid-modernity-978-0-7456-2410-5>
8. Jurayev Sh. *Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish: falsafiy tahlil*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 168 b. – URL: tasdiqlangan elektron manba topilmadi.
9. Smith A. D. *The Ethnic Origins of Nations*. – Oxford: Basil Blackwell, 1986. – 312 p. – URL: <https://search.worldcat.org/title/The-ethnic-origins-of-nations/oclc/59246910>
10. Brubaker R. *Ethnicity without Groups*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2004. – 283 p. – URL: <https://obnb.uk/p12986295-ethnicity-without-groups>
11. Wimmer A. *Ethnic Boundary Making: Institutions, Power, Networks*. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – URL: <https://academic.oup.com/book/4715>
12. Toshmatov N. A. *O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2023. – 192 b. – URL: tasdiqlangan elektron manba topilmadi.
13. Xoliqov A. *Bag'rikenglik madaniyatining falsafiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2022. – 154 b. – URL: tasdiqlangan elektron manba topilmadi.
14. UNESCO. *Investing in Cultural Diversity and Intercultural Dialogue: UNESCO World Report*. – Paris: UNESCO, 2009. – 402 p. – ISBN 978-92-3-104077-1. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000185202>
15. OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights. *ODIHR Publications: 2022*. – Warsaw: OSCE/ODIHR, 2022. – URL: <https://odihr.osce.org/odihr/535731>
16. Verkuyten M. *The Social Psychology of Ethnic Identity*. – Hove: Psychology Press, 2005. – 294 p. – URL: <https://research-portal.uu.nl/en/publications/the-social-psychology-of-ethnic-identity/>
17. Forst R. *Toleration in Conflict: Past and Present* / trans. by C. Cronin. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 635 p. – URL: <https://obnb.uk/p16168011-toleration-in-conflict-past-and-present>